



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 23-sentabr

VII-14-108-7-96-K/25

Kattaqo‘rg‘on tumani

**Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tuman Kengashining 2025-yil 5-martdagi
“O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-avgustdagi “O‘zboshimchalik bilan egallab
olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan
huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi O‘RQ-937-sonli Qonunining ijrosini ta’minlash
to‘g‘risida”gi VII-7-35-7-96-K/25-sonli qarorining tegishli ilovalariga o‘zgartirish
kiritish haqida**

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-avgustdagi “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi O‘RQ-937-sonli Qonunining 13- va 27-moddalarida Xalq deputatlari tuman Kengashlarining qarorlari bilan ushbu Qonunning 16-moddasida nazarda tutilgan vakolatli tashkilotlarning hududiy bo‘linmalari vakillaridan iborat ishchi guruhlar hamda hududiy fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish birliklari bo‘yicha yer uchastkasiga hamda unda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etishga ko‘maklashish bo‘yicha jamoatchilik guruhlarini tashkil qilinishi belgilab qo‘yilgan.

Shuningdek Davlat kadastrlar palatasi Samarqand viloyat boshqarmasining 2025-yil 15-avgustdagi 11479-sonli xatini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining yettinchi chaqiriq, o‘n uchinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-avgustdagi “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi O‘RQ-937-sonli Qonuni hamda Davlat Kadastrlari palatasi Samarqand viloyat boshqarmasining 2025-yil 15-avgust 11478-sonli xati ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tuman Kengashining 2025-yil 5-martdagi VII-7-35-7-96-K/25-sonli qarorining ilovalari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

3. Kattaqo'rg'on tumanida o'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalarini hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarni aniqlash ishlarini tashkil etish bo'yicha ishchi guruh tarkibi 1-ilovaga;

Kattaqo'rg'on tumanida yer uchastkasiga hamda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etishga ko'maklashish bo'yicha jamoatchilik guruhi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlariga:

ushbu Qonunga muvofiq huquqlar e'tirof etilmagan, o'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalarini qaytarish hamda ularda binolar va inshootlar qurish bilan bog'liq qonun buzilishlarini bartaraf etish holati yuzasidan har bir deputat o'zlariga biriktirilgan mahallalarda doimiy ravishda deputatlik nazoratini o'rnatish.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati (J.Safarov), "Kattaqo'rg'on kecha va bugun" gazetasi tahririyati (O'.Usmonov)larga:

o'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkasiga hamda unda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish bilan bog'liq ishlarni muntazam ravishda ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Ushbu qaror ijrosining nazorati Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmlariga yuklansin.

7. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH